XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-12-94-8-118-K/25 Uzun tumani

Uzun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-, 429- va 437-moddalariga asosan Surxondaryo viloyatida 2025-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsient qo‘llash va tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Uzun tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Xushvaqtov hisoboti hamda 2025-yil 17-dekabrdagi 18-07562-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (B.Xasanov), Uzun tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Xushvaqtovga)ga:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatda bo‘lishini nazorat qilish;

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.metr uchun mutloq miqdori viloyat markazlarida 2 350 000 so‘m va boshqa shaharlarda va qishloq joylarda 1 390 000 so‘m belgilanganligi minimal qiymatda bo‘lishi yuzasidan “Bobotog‘ tongi” gazetasi bilan hamkorlikda keng ommaga taqdim etish;

minimal qiymat bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qishloq joylarida keskin oshib ketishining oldini olish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashi belgilagan minimal qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, 0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsient kiritish;

yuridik shaxslar tomonidan mavjud mol-mulklari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

3. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 1-ilovaga muvofiq;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yilda qo‘llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yilda qo‘llaniladigan koeffitsientlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

har chorak yakunida yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlar to‘g‘risida hamda yuridik shaxslarga hisoblangan mol-mulk solig‘i va undirilgan boshqa soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklansin.

xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini **5 (besh) kun** ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

2026-yil yanvar oyida 2025-yil davomida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer soliqlarini belgilangan muddatda va miqdorda faollik bilan to‘lagan tumandagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarni mahalliy budjet hisobidan moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish to‘g‘risida tegishli xalq deputatlari tuman Kengashiga takliflarini kiritish;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

4. **Uzun tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Xushvaqtov), Davlat kadastr palatasi tuman filiali boshlig‘i (S.Xujamkulov)larga**

Tumandagi lalmi-yaylov zonada joylashgan jismoniy shaxslarning yerlari uchun ularning hujjatlarini o‘rgangan holda, soliq koeffitsientini soliq kodeksida belgilangan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashi belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,3 koeffitsient qo‘llash choralarini ko‘rsin (bundan soliq

kodeksining 429-moddasi, o‘n beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno)

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari hamda “Bobotog‘ tongi” gazetasi tahririyati rahbari (I.Bobokalonov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat, shahar va tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash Uzun tumani Soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Xushvaqtovga, bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi A.Kamolov zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **SAFAROVA DILOROM SHAYDILOVNA**

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-12-94-8-118-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Uzun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.

№	Mahalla nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsient miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffitsient miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Yoshlik MFY	1,00	49 010 000,00	1,00	402,53
2	Xujaqulsin MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
3	Bahoriston MFY	1,00	49 010 000,00	0,80	322,02
4	Beshkapa MFY	0,90	44 109 000,00	0,80	322,02
5	Bobotog‘ MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
6	Guliston MFY	0,90	44 109 000,00	0,70	281,77
7	Dehkon MFY	0,75	36 757 500,00	0,70	281,77
8	Dug‘ob MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
9	Dustlik MFY	0,90	44 109 000,00	0,95	382,40
10	Jiydabuloq MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
11	Surxon MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	322,02
12	Istiqlol MFY	0,90	44 109 000,00	0,70	281,77
13	Uzunqishlok MFY	0,90	44 109 000,00	0,80	322,02

14	O‘lanqul MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
15	O‘rmanchi MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
16	Fayzobod MFY	0,75	36 757 500,00	0,90	362,28
17	Fayzova MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	322,02
18	Xatib Qaxromon MFY	0,90	44 109 000,00	0,70	281,77
19	Xursand MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
20	O‘zbekiston MFY	1,00	49 010 000,00	1,00	402,53
21	Chaqar MFY	1,00	49 010 000,00	0,80	322,02
22	Erkinlik MFY	1,00	49 010 000,00	0,80	322,02
23	Yangi Kuch MFY	1,00	49 010 000,00	0,80	322,02
24	Yangi obod MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
25	Yangi yo‘l MFY	1,00	49 010 000,00	0,90	362,28
26	Zarkamar MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
27	Yangi ro‘zgor MFY	1,00	49 010 000,00	0,90	362,28
28	Yangishaxar MFY	1,00	49 010 000,00	0,90	362,28
29	Chinor MFY	0,80	39 208 000,00	0,70	281,77
30	Tomchi MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
31	Yangi xayot MFY	0,90	44 109 000,00	0,80	322,02
32	Tojikobod MFY	0,90	44 109 000,00	0,70	281,77
33	Qarashik MFY	0,90	44 109 000,00	0,90	362,28
34	Kichik jonchekka MFY	1,00	49 010 000,00	0,90	362,28
35	Tolto‘gay MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
36	Madaniy Turmush	0,75	36 757 500,00	0,80	322,02

	MFY				
37	Malandiyon MFY	1,00	49 010 000,00	1,00	402,53
38	Mehnat MFY	1,00	49 010 000,00	1,00	402,53
39	Mustaqillik MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
40	Mustaqillikning 22 yilligi MFY	0,72	35 287 200,00	0,70	281,77
41	Navro‘z MFY	1,00	49 010 000,00	0,70	281,77
42	Ittifoq MFY	1,00	49 010 000,00	0,90	362,28
43	Obizarang MFY	1,00	49 010 000,00	1,00	402,53
44	Obod yurt MFY	0,80	39 208 000,00	0,70	281,77
45	Oq ostona MFY	0,80	39 208 000,00	0,70	281,77
46	Oqmachit MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
47	Нурафшон МФЙ	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
48	Serxarakat MFY	0,80	39 208 000,00	0,70	281,77
49	Saxovat MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
50	Nurli kelajak MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77
51	Paxlavon MFY	0,70	34 307 000,00	0,70	281,77

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-12-94-8-118-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yilda qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	**Ko‘rsatkich**	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	***Koeffitsient***	1,01	1,01	1,01	1,01	1,01	1,01	1,01	1,01

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-12-94-8-118-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yilda qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	**Tuman nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezak toshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
15	Uzun tumani	1,01	1,01	1,01	1,01	1,01	1,01	1,01